



THE LIFE PATH OF AMIR TEMUR: A HISTORICAL ANALYSIS

Bakhtiyor Sabirjonovich Boltabayev

Acting Associate Professor, PhD

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

Mahliyo Qayumova

Student

Namangan State University

qayumovamahliyo175@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, historical sources, Movarounnahr, state governance, political activity, justice, strong personality, youth, Sahibqiran, Sharaf al-Din Ali Yazdi, “Zafarnama”, Ibn Arabshah, Nizam al-Din Shami, Turg’un Fayziyev, Amir Tarag’ay, Takina Khotun, Shamsiddin Kulol, military art, political maturity.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article explores the life path of the great commander and statesman Amir Temur, his lineage, and his historical role based on authentic sources. It highlights that his father, Amir Tarag’ay, was among the influential beks of the Barlas tribe, while Temur himself, from an early age, demonstrated strong will, wisdom, and a deep sense of justice. Drawing on historical evidence, the paper analyzes Temur’s efforts in strengthening the state, ensuring political stability, and improving the welfare of the people. The study also discusses the views of historians Sharaf al-Din Ali Yazdi, Nizam al-Din Shami, and modern researcher Turg’un Fayziyev, who evaluated Temur’s significant role in history.

AMIR TEMURNING HAYOT YO’LI: TARIXIY TAHLIL

Baxtiyor Sabirjonovich Boltabayev

v.b dotsent, PhD

Namangan davlat universiteti

Namangan, O‘zbekiston

Mahliyo Qayumova

Talaba

Namangan davlat universiteti

qayumovamahliyo175@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir Temur, tarixiy manbalar, Movarounnahr, davlat boshqaruvi, siyosiy faoliyat, adolat, irodali shaxs, yoshligi, Sohibqiron, Sharafiddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Turg'un Fayziyev, Amir Tarag'ay, Takina Xotun, Shamsiddin Kulol, harbiy san'at, siyosiy yetuklik.

Annotatsiya: Insoniyat tarixida o'z davrining siyosiy, harbiy va madaniy hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan siymolar orasida Sohibqiron Amir Temur alohida o'rin tutadi. Uning hayoti, faoliyati va davlat boshqaruvi tizimi Sharq hamda G'arb sivilizatsiyalari taraqqiyotiga chuqur iz qoldirgan. Mazkur maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning hayot yo'li, uning nasl-nasabi hamda tarixiy faoliyati manbalar asosida tahlil etilgan. Unda Temurning otasi Amir Tarag'ay barlos qabilasining nufuzli beklari qatoriga kirgani, Temurning yoshligidan irodali, dono va adolatparvar inson sifatida shakllangani haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, manbalarda keltirilgan dalillarga tayangan holda Temurning davlatni mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda xalq farovonligini oshirish yo'lidagi xizmatlari yoritilgan. Maqolada tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va zamonaviy tadqiqotchi Turg'un Fayziyevning qarashlari asosida Temur shaxsining tarixiy o'rni tahlil qilingan.

ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ АМИРА ТЕМУРА: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Бахтиёр Сабиржонович Болтабаев

и.о. доцента, PhD

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

Махлиё Каюмова

Студентка

Наманганский государственный университет

qayumovamahliyo175@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, исторические источники, Мавераннахр, государственное управление, политическая деятельность, справедливость, сильная личность, юность, СахибкIRON, Шарафиддин Али Йезди, «Зафарнаме», Ибн Арабшах, Низамиддин Шахи, Тург'un Файзиев,

Аннотация: В данной статье рассматривается жизненный путь великого полководца и государственного деятеля Амира Темура, его происхождение и историческая деятельность на основе достоверных источников. Уделено внимание тому, что его отец Амир Тарагай принадлежал к влиятельным бекам племени

Амир Тарагай, Такина Хатун, Шамсиддин Кулол, военное искусство, политическая зрелость.

барласов, а сам Темур с юных лет проявлял силу воли, мудрость и справедливость. На основе исторических данных анализируются заслуги Темура в укреплении государства, обеспечении политической стабильности и повышении благосостояния народа. В статье также рассмотрены взгляды историков Шарафиддина Али Йезди, Низамиддина Шами и современного исследователя Тургуна Файзиева, освещающие историческое значение личности Темура.

Kirish. Sohibqiron Amir Temurning dunyoga kelishi haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning „Zafarnoma“ asarida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan. Qozon sultoni davrida davlat quyoshi va saodat osmonining oyi zohir bo’ldi, Olamni saqlovchi yulduz ilohiy inoyat avjidan porladi. Sha’bon oyining yigirma besh kuni, hijriy 736-yilda (milodiy 1336-yil 8-aprel), sichqon yilida, Qash viloyatida (hozirgi Shahrisabz atrofida), dindor va taqvodor amir Tarag’ayning nikohida bo’lgan Takinaxonimdan sohibqiron Amir Temur dunyoga keldi. U dunyoga kelgach, go’yo quyosh nuri kabi porladi, saodat burjining oyiday zohir bo’ldi. ”Yangi bir oy osmondan porlab chiqdi,

Dunyoda yangi nomdor inson zohir bo’ldi. U inson qiyofasida olamga keldi, Olamni o’z muborak qadamlari bilan ziynatladi.” Shunday bo’lsinki, uning muborak zotini yomon ko’zlardan Alloh asrasin. Uning tug’ilishi bilan samodagi farishtalar tasbeh aytib, “Farishtalar Parvardigorini hamd ila yod eturlar va yerdagi mo’minlar uchun mag’firat so’raydilar” degan oyatga muvofiq tarzda duo bilan mashg’ul bo’ldilar. Shunday qilib, uning ulug’ maqomi kamolot cho’qqisiga yetsin deb, duo va tilovotlar bilan madad berdilar. “Bu go’zal nihol (Temur) doimo yashnasin,

Zuljalol (Alloh) uni himoyasiga olsin. U doimo baxtli va saodatli bo’lsin, Butun olam uning amriga bo’ysunsin[1. 2 B] Amir Temurning otasi Amir Tarag’ay (o’rta turkchasida Tarag’ay- “qoraquyruq qushi”) barlos qabilasining beklaridan biri bo’lib, qabilaning asosiy besh urug’idan biriga boshchilik qilgan. U Chig’atoy ulusining taniqli amirlaridan biri bo’lib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Amir Tarag’ay har yili Ili daryosi bo’yida Xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoylariga muntazam ravishda qatnashgan. Dastlab butparast bo’lgan Tarag’aybek Chig’atoy ulusi ichida birinchilardan bo’lib islom dinini qabul qilgan. Otasi Barqul Noyon singari u ham harbiy va siyosiy ishlarga qiziqmagan, asosan diniy ilmlar bilan shug’ullangan. Temurbek otasining qabrini tez-tez ziyorat qilib turgan va 1373-1374-yillarda uning qabri ustiga maqbara qurdirgan. Tarag’aybekning piri mashhur Shamsiddin Kulol bo’lgan.

Asosiy qism. Amir Temurning onasi Takina Xotun (yoki Takina Mohibegim) haqida ma'lumotlar esa juda kam. Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asarida faqat uning ismi tilga olinadi. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya va Angliya qirollariga elchi yuborgan Sultoniya bosh rohibi Johannes de Galonifontibus o'z yozuvlarida Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini qayd etadi. Temuriylar saroyida yozilgan, ammo muallifi noma'lum bo'lgan Muyizz al-Ansab ("Izzatli nasablar") asarida esa Takina Xotun Chig'atoy ulusiga mansub Yasaur qabilasidan ekani yozilgan. Arab tarixchisi Ibn Haldun (1400-1401-yillar) Temurbek bilan suhbatida uning onasini "Avesto" qahramoni Manuchehr naslidan deb aytganini yozadi. Temurning siyosiy raqibi Ahmad ibn Arabshoh esa o'zining Ajoyib al-maqdur fi navaib at-Taymur ("Temur taqdiridagi ajoyibotlar") asarida uni Chingizxon naslidan deb ko'rsatgan. XVIII-asrda yaratilgan ayrim manbalarda esa Takina Xotun Buxoro ulamolarining ulug'laridan biri "Sadr ash-Sharia" (Shariat qonunlarini sharhlovchi) Ubaydulloh Mahbubiyning qizi sifatida tilga olinadi. O'zbek tarixchisi Turg'un Fayziyev ham o'zining Temuriylar shajarasi (Toshkent, 1995) asarida shu fikrni qo'llab-quvvatlab, Jangnomayi Amir Temur Ko'ragon asariga tayanadi. [2. 5 B] Amir Temur bolaligidanoq, tabiatan oriq-bosiq, zehni o'tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastlab maktabda saboq oldi, savodini chiqardi. Ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlash, o'q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik qilish sirlarini yaxshilab o'rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o'n ikki yoshida tengqurlari bilan "podsho-vazir" o'ynashar ekan. Temurbek podsho bo'lar, qolganlarning har biriga bir "mansab" berilar, qamishdan yasalgan "gunohkor" odamni jazolab, "yurt" boshqarar ekanlar. O'n ikki yoshligidayoq, yurt boshqarish havasini olishga intilish kuchli bo'lgan, niyatini katta qilgan. Kichikligidan Qur'oni karimni yod olganligi aytiladi, Qur'on o'qishda uning ovozi qorilarnikidek salobatli va yoqimli bo'lgan[3.]

Amir Temurning bolalik yillari haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: „Hazrati Haqq subhonahu va taolo uni istiqomat beshigidan chiqarib, lutf daryosi suti bilan parvarish etdi. U hushyorlik yoshiga yetganda, harakati va qilgan ishlari bilan aqli balog'atga yetganini namoyon eta boshladi. Uning har bir so'zi, har bir ishi podsholik va rahbarlik belgilarini ko'rsatar, yuzidagi nurdan kelajakdagi buyuklik sezilib turardi.

U yosh bolalar bilan o'ynashni yoqtirar edi. O'yin vaqtida ularga shunday derdi: "Kelinglar tamom, men shoh bo'lay, Hamma menga shoh deb aytay, Sizlar esa bo'ling vazir, Men aytganimni qilay har bir." So'ngra o'yin davom etar, u o'zini adolatli shoh sifatida tutar edi. U derdi: "Kesinglar boshini ravon, Kim zulm qilsa hech kim jahon, Shoh hukmidan yuz o'girmas, Shoh so'zidan hech kim chiqmas." Temurbek tezda o'q otishni, o'tlanib chopishni, jang o'yinlarini sevib qoldi. Ovni shunchalik yoqtirardiki, ba'zida kechayu kunduzni ovda o'tkazardi.

Shubhasiz, Amir Temur o'smirlik yillaridanoq harbiy-sport mashg'ulotlari bilan shug'ullangan. Otasi Tarag'aybek xizmatidagi maxsus murabbiylar unga saboq berishgan. Ularning nomi tarixda aniq saqlanmagan bo'lsa-da, o'sha davrda "otabek" yoki "otalik" deb ataluvchi tarbiyachilar shahzodalarni ilm-fan va jismoniy mashqlarga o'rgatganlar.

Amir Temur yoshligidanoq ilm-fanga, ayniqsa tarix va din sohasiga qiziqqan. Tarbiyachilari uni Qur'on o'qishga, sabr-toqatga, adolat va halollikka o'rgatganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, u Shayx Shamsuddin Kulol huzuriga birinchi bor yoshligida borgan. U paytda shayx darvishlar bilan zikr aytayotgan ekan. Temur zikr tugaguncha sabr bilan kutgan, so'ngra tiz cho'kib, shayxning qo'lini o'pgan. Shunda Shayx Shamsuddin Kulol unga qarab duo qilgan. Keyinchalik Amir Temur bu duoni o'z muvaffaqiyatlarini sababchisi deb bilgan

Bizningcha, Temur 14-20 yoshlarida otasining maslahatlari bilan birga diniy ulamolarga yaqin bo'lib, solih hayot kechirgan. Ko'proq Xo'ja Izziddin Yalavach tariqatiga oid fikrlarni o'rganganligi haqida aytilganlar shu fikrni tasdiqlaydilar. Ibn Arabshoh esa o'zining xabari ("xulliya choqino") bilan buni tasdiqlaydi. Bu holatda Amir Temur haqidagi xabarlarining rasmiy solnoma va tarixiy manbalarda kam uchrashini tushunish mumkin. Chunki u yoshligidan diniy va harbiy ilmlarga o'rgangan, ammo asar mualliflari faqat Ibn Arabshoh, Temurning ilm o'rganganligi va uning Kazag'onning qiziga uylanganligi haqidagi xabarni (ikki rivoyatda) keltiradilar. Birinchi rivoyatda aytilishicha, Amir Temur yoshligida otining nabirasi Amir Husayn bilan o'ynar edi. Tarag'aybek keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, taxminan 1355-yilda ular ittifoq tuzganlar. Shu oraliqda esa ular bir-biriga yaqin bo'lib, Amir Husaynning buvisi Uljoy Turkon og'ani Temurga nikohlab bergan.

Amir Temur bilan Amir Husaynning ittifoqi kuchaydi. Balki shu tufayli ular ikki rivoyatda turlicha, ammo bir maqsadda eslatib o'tilgan. Ya'ni Temur otabek orqali Amir Husayn bilan qarindosh bo'lgan va uning singlisi Kazag'onni taniydi. Ular Temurning Amir Kazag'onning qiziga uylanishini maslahat berganlar. Xullas, voqealar qay usulda bo'lganligidan qat'i nazar, Amir Kazag'on Temurning aqlu zakovati, pahlavonlarcha salohiyati, shijoati va jasoratiga qoyil qolib, unga 1355-yilda nabirasi Uljoy Turkon og'ani turmushga bergan. Shundan so'ng Temur Uljoy Turkon og'adan bir o'g'il ko'radi. Biror yil o'tgach, bu o'g'il Jahongir Mirzo deb atalgan. Jahongir Mirzoning o'g'li esa Shohrux Mirzo bo'lgan. Shu tariqa Amir Temurning avlodlari davom etgan. Keyinchalik Amir Temur 1356-yilda Uljoy Turkon og'adan so'ng, Jaxon mirzo tug'ilgach, Jaxongirning o'g'li Shohrux Mirzo, undan keyin Mironshoh, so'ngra Umarshayx tug'adi. Bu bolalarning barchasi Amir Temurning mardligi, siyosiy zukkoligi va fazilatlarini meros qilib olganlar. Shuningdek, Temur o'z davrida yirik davlat arbobi, sarkarda va bunyodkor sifatida jahon tarixiga kirgan [4. 41-42 B]

Amir Sohibqiron hazrat: “Men ana shunday soʻzni xohlayman”, dedi. Men duo marosimini bajo keltirgan, arz izzatxoqiga shunday deb etkazdim: “Agar hukmlari joriy boʻlsa, bu banda shu tariqa yoʻldan borganim, qudratim etguncha uning xizmatidan chiqmagim urinmayman va bu xizmatni umrim sharafi deb bilgaymen”. Binobarin, jiddiy jahd kamarini kuch bilan bogʻlab, bu abadiyatga ulangan davlat qaror topgan davridan xonqahda (806-yil ramazon – 1404-yil mart oyi) kechgan voqealar, bir necha hodisalarni shohlik daftariga yozib oluvchi kotiblar va kunim joylarida safarlarda yuz bergan hodisalarni koʻrib, qayd etib borgan mullozimlar (bitikchilar) takallufsiz bayon etdilar, shuningdek, iboralar libosini kiyintirish bilan ularning taʼrif va tavsiflarini oʻzimning bayon uslubim bilan takror qilishni vazifa deb bildim va shunga jazm qildim. Shuning uchun “Zafarnoma” tarixini yozishga kirishdim.

Men unda sohibqiron hazratining maqtovga sazovor ishlari, maʼqul amallari, toʻgʻri fikrlari va xatosiz tadbirlari haqida bayon qildim, toki bu kitob jahondagi podshohlar, odam avlodining donishmandlari, xususan, oliy hazratning baxtli farzandlari va muborak nasllarining kundalik hayotlarida, shuningdek, podshohlik qonun-qoidalarida ular uchun odatnoma, davlat boshqaruvida esa sirdosh, yoʻlboschi ustod va koʻngilsoch doʻst boʻlsin. Ular turli mamlakatlarni zabt etishda, uzoq yoʻllarni bosib oʻtishda, shaharlarni olishda, xalqlarning farovonligi va obodonligini saqlashda, din va davlat ishlarini tartibga solishda, mulk va millat masalalarida undan ibrat olsinlar. U hazratning soʻzlari va amallari yurish-turishlarida, ishlarida, davlat ishlarini yuritishda yoʻl koʻrsatuvchi misol boʻlsin. Bizning umidimiz shu: bu kitobdan foydalanuvchilar uni kechayu kunduz oʻqib, Sohibqiron hazratining nomini jahon sahnasidan oʻchirmasinlar, uning shaʼni va obroʻsi haqida Sharqdan Gʻarbga ovoza yoysinlar[5. 5 B]

Xulosa. Amir Temur oʻz davrining siyosiy, harbiy va madaniy hayotida muhim oʻrin tutgan siymo sifatida tarixda oʻchmas iz qoldirgan. U otasi Amir Taragʻay va onasi Takina Xotun tarbiyasida yetishib, Shamsiddin Kulol kabi donishmandlardan saboq olgan. Yoshligidan irodasi, tafakkuri va adolatparvarligi bilan ajralib turgan Temur Movarounnahrni birlashtirib, kuchli markazlashgan davlat barpo etdi. Uning davlat boshqaruvi tizimi tartib, adolat va bunyodkorlikka asoslangan edi. Tarixiy manbalar - Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh kabi tarixchilarning asarlarida Temurning siyosiy yetukligi, harbiy sanʼatdagi isteʼdodi va insoniy fazilatlarini chuqur tahlil qilingan. Zamonaviy tadqiqotchi Turgʻun Fayziyev ham Sohibqiron shaxsining tarixiy oʻrni va uning jahon sivilizatsiyasiga qoʻshgan hissasini asoslab bergan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur nafaqat oʻz davrining buyuk sarkardasi, balki xalqining faxri, adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida insoniyat tarixida abadiy nom qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. -383 b.
2. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. –Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. -52 b.
3. "Amir Temur - Vikipediya" https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur
4. Amir Temur jahon tarixida. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1996. -391 b.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. -527 b.